

DUNYO TILLARINING O‘ZARO ALOQASI VA LEKSIKASIGA TA’SIRI

Shoxsanam Otaxonova

Namangan davlat pedagogika instituti
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Har qanday tilning taraqqiyoti davr bilan, zamon bilan hamnafas tarzda boradi va jamiyatdagi o‘zgarishlar, albatta, tillarda ham o‘z aksini topib boradi. Hech qaysi til yo‘q i, boshqa tildan so‘z qabul qilmasa, yoki boshqa tillarga o‘z ta’sirini ko‘rsatmasa. Maqolamizda dunyo tillari leksikasining boshqa tillar bilan ta’siri haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: lug‘at boyligi, arab tili, forsiyzabon tillar, moloko, utyug, kirpich, karandash

АННОТАЦИЯ

Развитие любого языка идет вместе со временем, и изменения в обществе, конечно же, отражаются и на языках. Не существует языка, который не заимствовал бы слова из другого языка или не оказывал бы влияния на другие языки. В нашей статье представлена информация о влиянии лексики мировых языков на другие языки.

Ключевые слова: лексика, арабский язык, фарсиязычные языки, молококо, утюг, кирпич, карандаш.

ABSTRACT

The development of any language goes along with the times, and the changes in the society, of course, are also reflected in the languages. There is no language that does not adopt words from another language or has no influence on other languages. Our article provides information about the influence of the lexicon of world languages with other languages.

Keywords: vocabulary, Arabic language, Farsi-speaking languages, moloko, utyug, brick, pencil.

Dunyo tillari rivoji, eng avvalo, shu tilga egalik qilib kelayotgan xalqning taraqqiyoti; ma’naviy-ma’rifiy, iqtisodiy va siyosiy hayotidagi o‘zgarishlar bilan uzluksiz bog‘langan. Xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik ularning tillaridagi fonetik,

grammatik va leksik o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Tildagi eng ko'p o'zgarish va rivojlanish leksik sohada ko'zga ko'rinadi. Hech qaysi til boshqa tillar bilan o'zaro almashinuvlarsiz boyib borish imkoniyatiga ega emas. Har bir tilning lug'at boyligi o'sha tilning ichki imkoniyatlari asosida bir so'zdan yangi boshqa bir so'z yasash yoki boshqa tillardan so'z olish hisobiga boyib boradi. Jumladan, o'zbek tili ham boshqa tillar ta'sirida o'z lug'at boyligini oshiradi. Masalan, arabiy tillardan kirgan: kitob, kotib, maktub, maktab, xalq, sanoat, ovqat, xotira, shaxs, nutq, xat, kamolot, sayqal, tobut, sir, havo, soat, tasodif kabi so'zlar; forsiy zabon tillardan kirgan: osmon, oftob, piyola, kema, sarpo, shamol, shogird, dasht, chavandoz, parvarish, zina, farzand, mayda kabi so'zlar shular jumlasidandir. Bu esa o'zbek xalqining tarixiy ildizlari bilan bog'liqdir. Turli istilolar, qo'shnichilik aloqalari, din va davlat bilan bog'liq o'zgarishlar tillarga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Xususan, din va ibodat, davlat va huquq sohasidagi tushunchalar arab tilidan o'zlashgan bo'lsa, hunarmandchilik va savdo –sotiq borasidagi tushunchalar fors-tojik tilidan o'zlashgan. O'zbek tiliga rus tili va rus tili orqali Yevropa tillaridan ham so'zlar o'zlashgan.

Rus tilidan: stol, stul, pechka, pero...

Nemis-rus-o'zbek: buxgalter, soldat, ofitser...

Fransuz-rus-o'zbek: vergul, palto, triko...

Ingliz-rus-o'zbek: tramvay, futbol, boks...

Ispan-rus-o'zbek: tomat, silos, marmelad

Xitoy tilidan ham shiypon, manti, lag'mon kabi so'zlarning o'zlashganini ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan bir qatorda, o'zbek tili ham boshqa tillarning rivojlanishi va sayqallanishida o'z hissasini qo'shgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Rus tilidagi ko'pgina so'zlar turkiy tillardan o'zlashgan. Misol: kazna — turkiy “g'azna”, arabcha “xazina”dan olingan. M.Fasmer tuzgan rus tilining etimologik lug'atida bu so'z turkcha xazna, qrim-tatar tilida xazna, deb berilgan. Kaznachey – kaznachы/kaznatsы – “g'aznachi” ham shu so'z asosida yaratilgan.¹ Etimologiyasi o'zbek tiliga borib taqaluvchi so'zlar qatoriga «serga» (sirg'a), «baxcha»(bog'cha), «арык» (ariq), «ochag» (o'choq), «karaul» (qorovul), «arbuz» (tarvuz), «bazar» (bozor), «plov» (palov), «камыш» (qamish), «caravan» (karvon), «arkan» (arqon), «ambar» (ombor), «kapkan» (qopqon), «baklajan» (baqlajon), «karakul» (qorako'l), «yeralash» (aralash), kabilarni ham kiritish mumkin. Lekin rus tiliga quyidagi so'zlar aynan o'zbek tilidan ko'chganligi, balki ko'pchilikni hayratga solar:

¹ Abduzuhur Abduazizov, “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi 2013 yil 26-soni

1. **Moloko** – turkiy tillarda ishlatiladigan “sut mahsuloti”ni “mol oqi” deyilishidan kelib chiqqan. Bu soʻz bugun rus tilida aynan sut mahsulotiga nisbatan ishlatilsa-da, oʻzbek leksikasida rus tilidan oʻzlashgan soʻz sifatida qaraladi.

2. **Karandash** – oʻzbek tilida bu istiloh oʻrnida arab tilidan oʻzlashgan “qalam” iborasi ishlatiladi. “Karandash” – “qora tosh” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, bu soʻz bugun rus leksikasida umumiy maʼnoda barcha qalam ranglariga nisbatan faol ishlatiladi.

3. **Utyug** – oʻzbek tilida bu atama oʻrnida fors tilidan oʻzlashgan “dazmol” soʻzi ishlatiladi. “Utyug” soʻzi asli turkiy tildan olingan boʻlib, “oʻt yoq” iborasining talaffuzi buzilgan shaklidir. Oʻzbekcha-ruscha ligʻatlarda esa biz bu soʻzni rus atamasi sifatida oʻrganamiz.

4. **Kolbasa**– bu atama oʻzbek tilida ham “kolbasa” tarzida ishlatiladi. Hatto baʼzi joylarda eshitib qolamizki, bu soʻzni rus tilidan oʻzlashgan deb hisoblashadi. “Kolbasa” atamasi asli turkiy ibora boʻlib, kolbasa mahsulotining tayyorlanish jarayoni bilan bogʻliq: asli “qoʻlbosma” boʻlib, keyinchalik talaffuzda tovushlar oʻzgarishi natijasida “kolbasa” boʻlib ketgan. yaʼni goʻshtning qoʻlda bosib qattiq holatga keltirish va qishga saqlab qoʻyish natijasida hosil boʻladigan mahsulot.

5. **Kirpich** – soʻzi ham shular jumlasidandir. Bu soʻz asli fors tiliga borib taqaluvchi “gʻisht” soʻzining fonetik oʻzgarishga uchragan shakli sifatida namoyon boʻladi.

Kishmish, oʻrik, anjir, sandiq, uzum, ketmon, xirmon, gʻozapoya singari soʻzlar ham boshqa tillarda faol qoʻllanadi. Yoki bulardan tashqari, hozirgi kunda butun jahon leksikasiga kirib borgan milliy kurashimiz bilan bogʻliq terminlar: chala, gʻirrom, halol, yonbosh, kurash kabilarni tashkil qiladi.

Demak, oʻzbek tilining rivojlanishi milliy anʼana va urf-odatlarimizga, yaratuvchanligimizga, kashfiyotchiligimizga bogʻliq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)

1. Abduazizov Abdusuhur. Tilshunoslik nazariyasiga kirish: Oliy oʻquv yurtlarining fil. fak. Talabalari uchun darslik-T.: “Sharq”, 2010.
2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik (OTM uchun darslik). Darslik. Toshkent, Fan va texnologiya, 2010. 81.633.1 R-25. 922679. 10 ta
3. Yoʻldoshev I., 3. Muhamedova S., Sharipova Oʻ., Majidova R. Tilshunoslik asoslari (OTM uchun qoʻllanma). Qoʻllanma. Toshkent, TDPU, 2013. 81.633.1 T-57. U-7690/4. 4 ta
4. Nurmonov A. Oʻzbek tilshunosligi tarixi. Oʻquv qoʻllanma T.: Oʻzbekiston, 2002
5. Abdusuhur Abduazizov, “Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati” gazetasi 2013 yil 26-soni